



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

TURKIYANING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIGI TARIXI (QOZOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Usarov Sirojiddin Raxmatullayevich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, doktorant, PhD

Annotatsiya

Ta'lim strategik sheriklar bo'lgan Turkiya va Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi hamkorlik sohalaridan birini tashkil etadi. Maqolada 1992-yildan boshlab tomonlarning ta'limdagi aloqalari tarixi tadqiq qilingan. Turkiyaning ta'lim grantlari dasturi, davlatlararo bitimlar asosida Qozog'istonda qo'shma litseylar va universitetlar faoliyatining yo'lga qo'yilishi va ularning hamkorlik tarixidagi o'rniga oid masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiya, Qozog'iston, ta'lim, "qozoq-turk" ta'lim muassasalari, universitet.

ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА ТУРЦИИ С СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН)

Усаров Сирожиддин Рахматуллаевич

Самаркандский государственный университет имени Шарафа Рашидова,
докторант, PhD

Аннотация

Образование является одной из областей сотрудничества между Турецкой Республикой и Казахстаном, являющимися стратегическими партнерами. В статье рассматривается история взаимоотношений сторон в сфере образования с 1992 года. Рассмотрены вопросы, связанные с программой образовательных грантов Турции, открытием совместных лицеев и университетов в Казахстане на основе межгосударственных соглашений, а также их роль в истории сотрудничества.

Ключевые слова: Турция, Казахстан, образование, "казахско-турецкие" образовательные учреждения, университет.

HISTORY OF COOPERATION BETWEEN TÜRKIYE AND CENTRAL ASIAN COUNTRIES IN THE FIELD OF EDUCATION (ON THE EXAMPLE OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN)

Usarov Sirojiddin Rakhmatullayevich

Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Doctoral Student, PhD

Abstract

Education is one of the areas of cooperation between Türkiye and the Republic of Kazakhstan, which are strategic partners. The article has examined the history of relations between the states in the field of education since 1992. Issues related Türkiye's educational grants, the establishment of joint educational institutions in Kazakhstan based on intergovernmental agreements, and their role in the history of cooperation are examined.

Keywords: Türkiye, Kazakhstan, education, Kazakh-Turkish educational institutions, university.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligining dastlabki yillari iqtisodiy, ijtimoiy va

madaniy hayoti og'ir va mashaqqatli kechdi. Bu birinchi navbatda SSSRda boshlangan inqiroz va uni bartaraf etishga bo'lgan urinish sifatidagi "qayta qurish siyosati" oqibati bo'lib, iqtisodiy tizimning izdan chiqishi o'z navbatida davlat va jamiyatning ijtimoiy hayotiga salbiy ta'sir o'tkazgan edi. Xususan, sog'liqni saqlash va ta'lim eng ko'p e'tiborga va islohotlarga muhtoj sohalarga aylandi. Ularda boshlangan islohotlar jarayonida xalqaro hamkorlikka ham alohida e'tibor qaratildi, jahonda zamonaviy ta'limda o'z o'rniga ega bo'lgan davlatlar bilan ushbu yo'nalishdagi aloqalar yo'lga qo'yila boshladi. Bunda ularning ta'lim tizimida to'plagan tajribalari o'rganildi, zaruratga qarab o'zaro hamkorlikda ta'lim loyihalari (hamkorlikda ta'lim muassasalari tashkil etish, talabalarni yuborish kabi) amalga oshirilishga kirishildi.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqilligini birinchilar qatorida e'tirof etgan Turkiya ular bilan barcha sohalarida munosabatlarga kirishdi. Ta'kidlash kerakki, bun jarayonlarda Turkiya Respublikasi Prezidenti Turg'ut O'zalning (1989-1993) tashqi siyosat borasidagi pozitsiyasi muayyan darajada hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgandi. Chunki u hali SSSR rasman tugatilmagan davrda (1991-yil mart) va tomonlar o'rtasida bir qator masalalarda yechimini kutayotgan bo'lishiga qaramasdan sovet davlatiga yetmish yillik munosabatlari tarixida tashrif buyurgan ikkinchi Turkiya yetakchisiga aylandi. Turg'ut O'zal o'zigacha 1969-yilda SSSRga kelgan Turkiya Prezidenti Javdat Sunay tashrif dasturidagi Kiyev va Bokudan tashqari yana Qozog'iston SSR poytaxti Olma-otani ham qo'shdirgan edi [14; – C.343.]. Shuning uchun zamonaviy tarixdagi Turkiya va Qozog'iston munosabatlarining tamali aynan 1991-yil martda yaratildi deb hisoblash o'rinli bo'ladi. Mazkur yilning sentabrda Qozog'iston SSR Prezidenti N.Nazarboyev Turkiyaga javob tashrifi bilan borishi (birinchi tashrif) ko'ptomonlama munosabatlar o'rnatilishini boshlab berdi [19; – C.160.]. Boshqa sohalar qatorida ikki davlat o'rtasida ta'lim sohasidagi aloqalar yo'lga qo'yildi.

Turkiyaning Qozog'iston bilan ta'lim sohasidagi hamkorligini shartli ravishda ikki yo'nalish asosida tahlil qilish o'rinli bo'ladi. Birinchi yo'nalish Turkiyaning o'z tashabbuslari doirasida amalga oshirilgan tadbirlar, avvalo ta'lim grantlarini taqdim etish ko'rinishida namoyon bo'lsa, ikkinchi yo'nalish davlatlararo bitimlar asosida yo'lga qo'yilgan hamkorlikni qamrab oladi.

Birinchi yo'nalish bevosita XX asrning 90-yillarida sobiq sovet makonida bo'lgan o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, SSSR o'rnida bir paytlar ta'sir doirasiga ega bo'lgan Kavkaz hamda tarixan aloqalar va munosabatlar mavjud bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi Turkiyaning mazkur yo'nalishdagi siyosatini amalga oshirishga xizmat qildi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Turkiya tashqi siyosatida ushbu yo'nalishning asosiy poydevori yaratilishi va tashkiliy ko'rinish kasb etishi xuddi shu davrga to'g'ri keladi. O'shanda keyinroq "Turkiya burslari" nomi bilan mashhur bo'lgan Turkiya stipendiyalari dasturining o'tmishdoshi bo'lgan "Buyuk talaba loyihasi" (Büyük Öğrenci Projesi) ishga tushirilgan edi [7; – S.146.].

Bu loyiha birinchi navbatda Kavkaz va Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarga (Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekiston) mo'ljallangan, ammo tez orada boshqa mamlakatlarga nisbatan ham tadbir etila boshlangan [9; – S.46.]. Mazkur loyiha "Turkiy davlatlar, turkiy va qardosh jamiyat talabalarini jalb qilish loyihasi" nomi bilan ham atalgan va qisqa fursatda unga 57 ta davlat va jamiyatlar qamrab olingan [2;].

Qozog'istonlik yoshlar "Buyuk talaba loyihasi"ni ishga tushirilgan birinchi yildan (1992-1993-o'quv yilidan) ishtirok eta boshlagan. Turkiyalik mutaxassislarning Oliy ta'lim kengashining 2005-yildagi hisobotlariga tayangan ma'lumotiga asosan o'sha yilda Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va O'zbekistonning 1400 nafar vakillariga ta'lim grantlari taqdim etilgan [7; –S.137.]. 2010-yilgacha bo'lgan davrda loyiha doirasida qozog'istonliklardan 3093 nafari Turkiyada ta'lim grantni qo'lga kiritgan edi. Bu raqam Markaziy Osiyo davlatlari ichida ikkinchi (Turkmanistondan keyin) ko'rsatgichni anglatgan [8; – S.546.]. Umuman olganda, loyiha ishga tushirilgandan keyingi 30 yil davomida 7 mingdan ortiq qozog'istonliklar Turkiya oliygohlarida ta'lim olgan bo'lsa, ularning 5 ming 800 nafardan ortiqrog'ini bevosita "Turkiya

burslari” grantini qo‘lga kiritganlar tashkil qiladi [5;].

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda Turkiya tomonidan taklif qilinayotgan ta‘lim xizmatidan foydalanayotganlar orasida Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, Qozog‘iston yoshlari ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Lekin bu raqamlar Turkiyaning bilan hamkorlik ko‘lamini ko‘rsatmaydi, balki yoshlarning shaxsiy istagi va imkoniyatidan (iqtisodiy holati va til bilish darajasi kabi) kelib chiqib amalga oshiriladigan tanlovi mahsuli hisoblanadi. Misol uchun, birgina 2013-2014-o‘quv yilida Turkiyaning davlat va nodavlat oliygohlarida Markaziy Osiyo davlatlaridan jami 10497 nafar yoshlar tahsil olgan bo‘lsa, shularning ichidagi qozog‘istonliklar soni 1306 nafarni tashkil etgan (uning ichida “Turkiya burslari” stipendiantlari ham bor) [10;]. 2024-2025-o‘quv yilida Qozog‘istondan 12893 nafar yoshlar Turkiya oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olgan [11;]. Albatta, o‘n yillik oraliqdagi oliygohlarida o‘qiyotgan qozog‘istonliklar sonining bu qadar o‘shishini xorijda ta‘lim olishga bo‘lgan intilish ortishi, bunday imkoniyatni ta‘minlaydigan darajada turmush farovonligining oshganligi bilan birga yana so‘nggi yillarda Turkiyaning ilmiy-texnikaviy sohalarda qo‘lga kiritayotgan natijalari bilan ham izohlash o‘rinli.

Turkiyaning Qozog‘iston Respublikasi bilan ta‘lim sohasidagi hamkorligining ikkinchi yo‘nalishi davlatlararo aloqalar tashkil etadi. Ikki davlat ta‘limga mutasaddi idoralari tomonidan 1992-yilda mayda imzolangan hamkorlik haqidagi bitim bilan mazkur yo‘nalishdagi munosabatlarning huquqiy asosi yaratildi. Shundan boshlab Qozog‘istonda qo‘shma “qozoq-turk” ta‘lim muassasalari (ular ko‘pincha “qozoq-turk” litseylari nomi bilan tanilgan) tashkil etila boshlandi. E‘tiborlisi, bu jarayonda davlat idoralar bilan birgalikda, Turkiyadagi turli nodavlat tashkilotlar va tijoriy shirkatlar birdek ishtirok etdi. Bu holat bir tomondan davlatga ortiqcha “yuklama” va harajatlarning oldini olib, xorijiy davlatlarda, jumladan Qozog‘istonda Turkiya ta‘lim tizimini yo‘lga qo‘yish imkonini bergan. 1997-yil martdagi “Turkiya Respublikasi Milliy ta‘lim vazirligi va Qozog‘iston Respublikasi ta‘lim vazirligi o‘rtasida ta‘lim sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi shartnoma” bilan tomonlar ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik huquqiy asoslarini mustahkamladi.

Ammo, ayni vaqtda, xorijda shu kabi qo‘shma ta‘lim tizimi asosidagi ta‘limga turli nodavlat jamg‘armalari va tijoriy shirkatlarining ishtirok etish tajribasi davlatlarning xavfsizligi masalasiga daxl qilishi mumkinligini Turkiyaning o‘zida sodir bo‘lgan keyingi voqealar rivoji ko‘rsatib berdi. Chunki bunday ta‘lim orqali nodavlat jamg‘armalar yoki tijoriy shirkatlar orqali muayyan guruh yoki oqimlar manfaatlariga xizmat qiluvchi tizimni yo‘lga qo‘yish mumkin edi.

Jumladan, XX asr 60-yillar oxirlarida shakllangan Fathulloh Gulen (Fethullah Gülen) va uning “Xizmat” harakati (keyinroq bu harakat FETO (Fathullohchi terrorchilik tashkiloti) (Fethullahçı Terör Örgütü – FETÖ) nomi bilan atala boshlandi) Turkiyada XX asrning 90-yillarida kelganda davlatga siyosatiga bevosita ta‘sir o‘tkaza oladigan tayanch yaratgan edi. Bunga u muayyan darajada Turkiyada yo‘lga qo‘ygan o‘z ta‘lim tizimi orqali erishdi. Turkiyaning xorijda ta‘limni tashkil etish siyosati mazkur harakatga jahon mamlakatlari bo‘ylab o‘z faoliyatini kengaytirishga xizmat qildi. Shu orqali ular endi shu davlatlarda ham o‘zlariga xayrixoh bo‘lgan qatlamni yetishtirib chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lib oldi.

Asosiy e‘tiborni Ozarbayjon va Markaziy Osiyo davlatlariga qaratgan “gulenchilar” 1992-yilda Turkiyadan tashqaridagi birinchi litseyini Ozarbayjonda (Nahchivon turk litseyi) tashkil etdi. Xuddi shu yildan boshlab Qozog‘istonda ham shunday “qozoq-turk” nomi bilan boshlanuvchi ta‘lim muassasalari ochila boshlandi [3;]. Qozog‘istondagi harakatga aloqador ta‘lim muassasalari soni qisqa vaqt ichida 29 ta yetgan [1; – S.156.].

Qozog‘istonda qozoq-turk ta‘lim muassasalari faoliyati 1997-yilda ta‘sis etilgan Qozog‘iston Turkiya maorif jamg‘armasi – KATEV (Kazakistan ve Turkiye Eğitim Vakfi), boshqa manbalarda KATEVning kengaytirmasi Uluslararası Eğitim ve Kültür Vakfı (Xalqaro ta‘lim va madaniyat jamg‘armasi) tarzida ham keltirilgan) tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu jamg‘arma mahalliy hokimiyat bilan tuzilgan shartnoma asosida “qozoq-turk” ta‘lim muassasalari faoliyatini tashkil etgan [18;]. KATEVning ham “gulenchilar”ga aloqador bo‘lganligi keltiriladi

[1; – S.155.].

FETOning 2016-yil iyuldagi Turkiyadagi davlat to'ntarishiga urinishi voqealari Qozog'istonda yana bir bor hamkorlikda tashkil etilgan ta'lim muassasalari masalasini kun tartibiga ko'tardi. Sababi birinchi marta 2014-yilda Qozog'istonda bunday muassasalar yopilishi ehtimoli haqida fikrlar yangray boshlagan edi. Bu Turkiyaning o'zida boshlagan korrupsiyaga aloqador siyosiy inqiroz bilan bog'liq bo'lib, shundan keyin davlat tomonidan "gulenchilarning" asosiy daromad manbasi bo'lgan ta'limdan ularni chetlashtirishga kirishildi [17; – C.3-4.]. Natijada mamlakat ichidagi va tashqarisidagi "gulenchilar"ga aloqador muassasalarni yopish boshlandi. O'shanda Qozog'iston tomoni "bu litseylar mahalliy budjetdan moliyalashtirilishi, mahalliy hokimlar vakolati doirasidali, Ilbraya Altynsarina nomidagi Milliy akademiya tomonidan ishlab chiqilgan davlat o'quv dasturlariga asosan faoliyat ko'rsatishi" haqidagi asosi bilan yopilmasligini ma'lum qiladi [13;].

Ikkinchi marta bu masala 2016-yil iyulda Turkiyadagi davlat to'ntarishga urinish voqealaridan asosiy muhokama mavzusiga aylandi. Bu safar ham rasmiy Qozog'iston bu ta'lim muassasalari yopilmasligini va ular prezidentlar (N.Nazarboyev va T.O'zal) o'rtasidagi imzolangan bitim asosida tashkil etilganligini ta'kidlaydi [4;]. Lekin 2016-yil avgustda Qozog'iston Prezidentining Turkiyaga tashrifi davomida "qozoq-turk" litseylarining keying taqdiri masalasi yana kun tartibiga ko'tariladi. Qozog'iston yetakchisi ushbu ta'lim muassasalari to'liq davlat nazoratidaligini, o'qituvchilarining 90% mahalliy mutaxassislar va qolganini Turkiyalik ekanligini va ular qaytarib yuborilishini, ularning o'rniga boshqa pedagoglarni yuborishni istagini ma'lum qiladi [6;].

Shu tariqa, Qozog'iston "qozoq-turk" ta'lim muassasalarini to'liq yopishdan o'zini tiydi. Sababi, ular qozog'istonliklar ichida katta mashhurlikka ega bo'lib, yopilish masalasi jamiyatda katta muhokamani keltirib chiqargan edi, chunki ularning o'quvchilari aksariyat hollarda, ingliz tilini yaxshi bilishgan va boshqa fanlar bo'yicha ham nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatib kelayotgan edi [17; – C.6.]. Bir tomondan Turkiyaning talabi, ikkinchi tomondan bunday ta'lim muassasalarining davlat ta'limidagi o'rni va darajasi yuqoriligi faktori sharoitida Qozog'iston o'sha vaqtda qilish mumkin bo'lgan eng oqilona yo'lni tanladi. "Qozoq-turk litseylari" rebrending qilinib, "bilim-innovatsiya litseylari" sifatida qayta nomlandi va faoliyati davom ettirildi. Ta'lim muassasalari nomidagi "turk" so'zlari olib tashlanishidan tashqari, ularning boshqaruvi ham o'zgardi. "Bilim-innovatsiya litseylari" faoliyatini muvofiqlashtirish uchun 2016-yilda "Bilim-innovatsiya" xalqaro jamoat fondi ta'sis etilib, u KATEV vakolatlarini o'ziga oldi [16;]. Turkiya tomoni ham Qozog'istonning "qozoq-turk" ta'lim muassasalari taqdiri masalasida qo'llagan tadbiriga e'tiroz bildirmadi.

"Strategik sheriklar" bo'lgan Turkiya va Qozog'istonning oliy ta'lim sohasida yo'lga qo'ygan hamkorligi ham katta samaralar berganligini ta'kidlash kerak. Bu borada Xo'ja Ahmad Yassaviy nomidagi qozoq-turk xalqaro universiteti faoliyatini ko'rsatib o'tish o'rinli. Mazkur muassasa 1991-yil iyunda Xo'ja Ahmad Yassaviy nomidagi Turkiston davlat universiteti sifatida tashkil etilgan edi. 1992-yil 1-mayda Qozog'iston Prezidenti (N.Nazarbayev) va Turkiya Bosh vaziri (S.Demirel) tomonidan unga "xalqaro universitet" maqomi beriladi. Shu yilning 31-oktabrida "Xo'ja Ahmad Yassaviy nomidagi qozoq-turk xalqaro universitetini qayta tashkil etish to'g'risida"gi Bitimga muvofiq hamkorlikdagi xalqaro universitetga aylandi va hozirgacha faoliyatini davom ettirib kelmoqda [15].

Mazkur universitet 2007-yildan Balonya jarayoniga qo'shilishni boshladi, 2010 yilda Qozog'iston Balonya jarayoni va va Yevropa oliy ta'lim hududiga qo'shilgan Markaziy Osiyodagi birinchi mamlakatga aylandi. Bu esa Turkiyaning Qozog'iston bilan oliy ta'lim sohasida hamkorligining bevosita amaliy natijasi hisoblanadi. Sababi Turkiya ham ushbu Balonya jarayoni va Yevropa oliy ta'lim hududiga 2001-yilda kirgan edi [12; – C.277.].

Xulosa o'rnida aytish kerakki, o'ttiz yildan ortiqroq vaqt mobaynidagi Turkiya va Qozog'iston o'rtasidagi ta'lim sohasidagi hamkorlik o'rta ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha

bo'lgan bosqichlarni qamrab oldi. O'rta ta'limda Qozog'iston tomonining "qozoq-turk" ta'lim muassasalarida mahalliy kadrlar ulushining oshishiga e'tibor qaratganligi, o'quv dasturlarining davlat tomonidan muvofiqlashtirganligi ularning nisbatan uzoqroq faoliyat yuritishi omil bo'ldi. Ayni paytda bu jarayonga davlat tomonidan ularning "diniy-siyosiy oqim" g'oyalari tashuvchi tahdid sifatida ko'rilmaganligi, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bayram Balci. Fethullah Gülen's Missionary Schools in Central Asia and their Role in the Spreading of Turkism and Islam // Religion, State & Society, Vol. 31, No. 2, 2003.
2. Birol Dok. Türk Kültür Coğrafyasında Birliğin Sağlanmasında Eğitimin Rolü; "Büyük Öğrenci Projesi" Tecrübesi (21.11.2018) // <https://sahipkiran.org/2018/11/21/buyuk-ogrenci-projesi/> (murojaat qilingan sana: 07.03.2026)
3. FETÖ'nün tarihçesi - 15 Temmuz Darbe Girişimi Raporu // <https://www.haberturk.com/gundem/haber/1508856-fetonun-tarihcesi-15-temmuz-darbe-girisimi-raporu> (murojaat qilingan sana: 04.03.2026)
4. Kazakistan FETÖ okullarını kapatmayacağını açıkladı. 02.08.2016. // <https://www.sozcu.com.tr/kazakistan-feto-okullarini-kapatmayacagini-acikladi-wp1337401> (murojaat qilingan sana: 04.03.2026)
5. Kazakistan'da Türkiye Mezunları Derneği Açıldı // YTB. Kasım 24, 2022. <https://ytb.gov.tr/haberler/kazakistanda-turkiye-mezunlari-dernegi-acildi> (murojaat qilingan sana: 02.03.2026)
6. Kazakistan'daki FETÖ Okulları: 'Türkiye'nin Talebine Karşılık Vereceğiz'. 05.08.2016 // <https://onedio.com/haber/kazakistan-daki-feto-okullari-turkiye-nin-talebine-karsilik-verecegiz-724718> (murojaat qilingan sana: 04.03.2026)
7. Metin Çelik & Birol Akgün. Etkili Bir Yumuşak Güç Unsuru Olarak Uluslararası Eğitimin Türk Dış Politikasındaki Yeri // Liberal Düşünce Dergisi, Yıl: 28, Sayı:111, Yaz 2023, ss.121-150.
8. Mustafa Durmuş, Harun Yılmaz. Son Yirmi Yılda Türkiye'nin Orta Asya'ya Yönelik Dış Politikası ve Bölgedeki Faaliyetleri. // Bağımsızlıklarının yirminci yılında Orta Asya Cumhuriyetleri: Türk dilli halklar-Türkiye ile ilişkiler: Avrasya'da yeniden çizilen sınırlar, inşa edilen kimlikler projesi: I. Kitap / Editörler: Ayşegül Aydıngün, Çiğdem Balım; Proje Yürütücüsü: Süer Eker. – Ankara: Atatürk Kültür Merkezi, 2012.
9. Selim Öztürk. Büyük Öğrenci Projesinden Türkiye Bursları Projesine Geçiş Süreci ve Türkiye'nin Öğrenci Politikasındaki Değişim. // T.C. BAŞBAKANLIK Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı Uzmanlık Tezi. – Ankara, 2014.
10. Yükseköğretim Bilgi Yönetim Sistemi // Yükseköğretim İstatistikleri // Öğrenci İstatistikleri // Uyuşa Göre Öğrenci sayıları// 2013-2014-öğretim yılı - <https://istatistik.yok.gov.tr/>
11. Yükseköğretim Bilgi Yönetim Sistemi // Yükseköğretim İstatistikleri // Öğrenci İstatistikleri // Uyuşa Göre Öğrenci sayıları// 2024-2025-öğretim yılı - <https://istatistik.yok.gov.tr/>
12. Аватков В.А., Касаткин П.И. Высшее образование в Турции и Болонский процесс // Вестник МГИМО-Университета. 2012;(6(27)): 277-281. <https://doi.org/10.24833/2071-8160-2012-6-27-277-281>.
13. В Казахстане не будут закрывать казахско-турецкие лица (10.04.2014) // https://tengrinews.kz/kazakhstan_news/v-kazaxstane-ne-budut-zakryvat-kazaxsko-tureckie-licei-253367/ (murojaat qilingan sana: 09.03.2026)
14. Гасымлы М.Дж. Турция–СССР: от переворота до распада. 1980-1991. – М., 2010.
15. История университета// Официальный сайт Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмеда Ясави - <http://ayu.edu.kz/ru/50/tarihce> (дата обращения: 28.02.2026)
16. О нас "Білім-Инновация" // Официальный сайт Международного общественного фонда «БІЛІМ-ИННОВАЦИЯ» - https://bil.edu.kz/?page_id=33&lang=ru (дата обращения:

09.03.2026)

17. Султанмуратов Н. Образование по-турецки или Фактор Гюлена в Казахстане // Институт азиатских исследований/ The Institute of Asian Studies. Май. 2018. – Алматы.

18. Тарихымыз // “KATEV- Халықаралық қоғамдық қоры” rasmiy veb sayti <https://web.archive.org/web/20130530025137/http://katev.kz/?p=content&cl=hakkimizda&i=8> (murojaat qilingan sana: 09.03.2026)

19. Четин Н. История развития казахско-турецких отношений. // «Актуальные проблемы исторической науки Казахстана и Центральной Азии». Сборник статей международной научной конференции. – Астана, 2018.